

KOD ALMASHINUVI (CODE-SWITCHING) HODISASI VA UNING TURLI SOHALARDA INTEGRATSIYASI

Djalilova Zarnigor Baxodirovna

BuxDU ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsent, f.f.f.d (PhD) z.b.djalilova@buxdu.uz

Razaqova Yodgora Ismat qizi

Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti yodgorarazzoqoval@gmail.com

Annotatsiya: Kod almashtirish deganda bitta suhbat, jumla yoki nutq doirasidagi ikki yoki undan ortiq til yoki til turlari o'rtasidagi almashinish tushuniladi. Bu ikki tilli va ko'p tilli jamoalarning umumiy xususiyati bo'lib, o'zlikni, muloqot strategiyasini va madaniy ifodani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tezis kod almashinuvini lingvistik, ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqadi, Uning funksiyalari va ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: kod almashinuvi, ikki tillilik, til aloqasi, badiiy strategiya.

Abstract: Code-switching is defined as the switching between two or more languages or language varieties within the context of a single conversation, sentence, or utterance. It is a common feature of bilingual and multilingual communities and plays an important role in the formation of identity, communicative strategies, and cultural expression. This thesis examines code-switching as a linguistic, social, and cultural phenomenon, focusing on its functions and significance.

Keywords: code-switching, bilingualism, language contact, artistic strategy.

KIRISH

XX-XXI asr adabiyoti globallashuv, migratsiya va madaniy xilma-xillik jarayonlari bilan ajralib turadi. Diaspora yozuvchilari asarlarida ushbu jarayonlar natijasida paydo bo'lgan madaniy kesishmalar va lingvistik strategiyalar o'z ifodasini topgan. Xususan, kod almashtirish diaspora adabiyotidagi til, madaniyat va shaxsiy o'ziga xoslikning murakkab tuzilishini aks ettiruvchi noyob badiiy qurilmadir.

Kramsch til borasidagi izlanishlaridan kelib chiqib quyidagi jummalarni o'z kitobida bayon qilgan: "Language expresses, embodies, and symbolizes cultural reality."¹⁹ Bu jumla orqali Kramsch til madaniyatni ifodalaydi, o'zida mujassamlashtiradi, va ramziy ma'noda aks ettiriladi deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, til orqali inson o'ziga xoslikni yaqqol namoyon etadi. Inson tildan turli maqsadlarda foydalanadi, masalan axborot berishda, yangiliklardan xabardor qilishda, turli muzokaralarda o'z fikrini bayon etishda, umuman olganda hayotning har jabhasida til – insonning so'zlashuv quroli bo'lib xizmat qiladi.

Kod almashtirish atamasi tilshunoslikda va sotsiolingvistika, psixologiya, adabiyotshunoslik kabi sohalarda keng muhokama qilinadi va qo'llaniladi. Ben Rempten kod almashtirishni quyidagicha ta'riflaydi: "Kod almashtirish - bu ma'ruzachilarning bir suhbat yoki nutq kontekstida ikki yoki undan ortiq tillar yoki til turlari o'rtasida oldinga va orqaga almashinadigan lingvistik hodisa."²⁰

¹⁹ Kramsch, C. (1998). Language and culture. Oxford University Press.

²⁰ Rampton, B. (1995). Crossing: Language and ethnicity among adolescents. Longman Publishing.

Ben Remptenning ta'rifida kod almashtirish hodisasining asosiy jihatini aniq va lo'nda ifodalaydi.

Ayniqsa, "bir suhbat yoki nutq kontekstida" degan urg'u muhim, chunki kod almashtirish faqat tillarni bilish emas, balki real kommunikativ vaziyatda ularni faol tarzda qo'llash bilan bog'liq. Shuningdek, u "til turlari"ni (masalan, dialekt, uslub, ijtimoiy nutq shakllari) ham kiritgani bilan kod almashtirishni faqat ikki alohida til o'rtasidagi hodisa sifatida emas, balki kengroq sotsiolingvistik jarayon sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv zamonaviy tilshunoslik qarashlariga mos keladi.

Kod almashinuvi sotsiolingvistikada ham keng o'rganilgan. Poplek "Kod almashtirishni bitta suhbat, jumla yoki hatto gap ichidagi tillarning almashinishi" sifatida belgilaydi.²¹ Ijtimoiy-madaniy tilshunoslikda kodlarni almashtirish bo'yicha tadqiqotlar tarixi ko'pincha Blom va Gumperzning (1972) "Social meaning in linguistic structures" kitobidan olingan.

Ayrim manbalarda kod almashinuvining o'zi lingvistik emas, balki psixologik hodisa ekanligi va uning sodir bo'lish sabablari, shubhasiz, lingvistika doirasidan tashqarida ekanligi ta'kidlanadi. Ammo ikki tillilik hamda tillar orasidagi interferentsiya holat tilshunoslik sohasida katta qiziqish uyg'otdi.²² Kod almashinuv faqat til tizimi doirasidagi hodisa emas, balki ikki tilli shaxs ongida kechadigan psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Haqiqatan ham, ma'ruzachining nutq davomida bir tildan ikkinchisiga o'tishi ko'pincha ichki kognitiv holat, tajriba va vaziyatga moslashuv natijasidir.

Mayers-Skotten "Kodni almashtirish lingvistik nuqson belgisi emas, balki qoidalar bilan boshqariladigan va mazmunli jarayon" ekanligini ta'kidlaydi.²³

Badiiy matnlarda bu kalitlar ko'pincha stilistik va pragmatik effektlarga erishish uchun ataylab joylashtiriladi.

Diaspora adabiyoti ko'pincha ko'p tilli voqelikni aks ettiradi, bu yerda vatanning ona tili mezbon davlatning hukmron tili bilan o'zaro ta'sir qiladi.

Risager ta'kidlashicha, bunday lingvistik gibridlik global migratsiyaning madaniy murakkabligini ifodalaydi.²⁴

Ushbu turdagi leksik kod almashinuvi madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlaydi va kundalik nutq namunalarini aks ettiradi. Beyker fikriga ko'ra, "Madaniyatga xos atamalarni saqlash semantik va hissiy ma'noni saqlab qolishga yordam beradi, aks holda tarjimada yo'qoladi."²⁵

Xulosa qilib aytganda, kod almashinuvi badiiy matnda nafaqat lingvistik hodisa, balki muhim badiiy strategiya hisoblanadi.

U qahramonlarning identifikatsiyasi, madaniy mansubligi va emotsional holatini ifodalashda xizmat qiladi. Ayniqsa diaspora adabiyotida kod almashinuvi ikki madaniyat o'rtasidagi ziddiyat, moslashuv va o'zlikni izlash jarayonlarini ochib beradi.

²¹ Poplack, S. (1980). Sometimes I'll start a sentence in Spanish y termino en español. *Linguistics*, 18(7-8) 581-618.

²² Vogt, Hans. 1954. "Language Contacts." *Word* 10(2-3): 365-374.

²³ Myers-Scotton, C. (1993). *Social motivations for codeswitching*. Oxford University Press.

²⁴ Risager, K. (2006). *Language and culture: Global flows and local complexity*. Multilingual Matters.

²⁵ Baker, M. (2011). *In other words: A coursebook on translation* (2nd ed.). Routledge.

Shu tariqa, u matnga estetik, semantik boylik qo‘shadi hamda muallifning badiiy niyatini amalga oshirishda samarali vosita bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, M. (2011). In other words: A coursebook on translation (2nd ed.). Routledge.
2. Díaz, J. (2007). The brief wondrous life of Oscar Wao. Riverhead Books.
3. Hall, S. (1990). Cultural identity and diaspora. In J. Rutherford (Ed.), Identity: Community, culture, difference (pp. 222–237). Lawrence & Wishart.
4. Kramsch, C. (1998). Language and culture. Oxford University Press.
5. Lahiri, Jhumpa. The Namesake. Houghton Mifflin, 2003.
6. Myers-Scotton, C. (1993). Social motivations for codeswitching. Oxford University Press.
7. Poplack, S. (1980). Sometimes I'll start a sentence in Spanish y termino en español. Linguistics, 18(7–8), 581–618.
8. Rampton, B. (1995). Crossing: Language and ethnicity among adolescents. Longman Publishing.
9. Risager, K. (2006). Language and culture: Global flows and local complexity. Multilingual Matters.
10. Vogt, Hans. 1954. "Language Contacts." Word 10(2-3): 365-374.